

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/08.05.2024.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TAJIBAYEV JUR’AT XAMROYEVICH

**“O‘ZBEKISTON SHAHARLARINING TARIXIY HUDUDLARI
“DIZAYN KOD” QOIDALARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI
(Buxoro va Samarqand shaharlari misolida)”**

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft
arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

**ARXITEKTURA bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Arxitektura bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in architecture**

Tajibayev Jur‘at Xamroyevich

“O‘zbekiston shaharlarining tarixiy hududlari “dizayn kod” qoidalarini shakllantirish tamoyillari (Buxoro va Samarqand shaharlari misolida)”.....3

Тажибаев Журъат Хамроевич

“Принципы формирования правил “дизайн-кода” исторических территорий городов Узбекистана (на примере городов Бухара и Самарканд)”.....23

Tajibaev Jurat Khamroyevich

“Principles for Developing Design Code Regulations for the historical areas of cities in Uzbekistan (The Case of Bukhara and Samarkand)”45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works55

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/08.05.2024.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TAJIBAYEV JUR’AT XAMROYEVICH

**“O‘ZBEKISTON SHAHARLARINING TARIXIY HUDUDLARI
“DIZAYN KOD” QOIDALARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI
(Buxoro va Samarqand shaharlari misolida)”**

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft
arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

**ARXITEKTURA bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/A131-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.taqu.uz/interaktiv-xizmatlar/taqu-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/122-ixtisoslashgan-kengashlar.html>) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) Manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Matniyazov Zafarbek Erkinovich

Arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Rasmiy opponenlar:

Ziyayev Abdumannob Abduraximovich

Arxitektura fanlari doktori, professor

Mustayev Baxrom Baxodirovich

Arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

“O‘zshaharsozlikLITI” davlat muassasasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD PhD.03/08.05.2024.A.11.02 raqamli ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning 2025 yil «28» avgust kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi 9-uy, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti majlislar zali. Tel.: +998 (55) 508-02-95. e-mail: devon@taqu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (165-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani Yangi shahar ko‘chasi, 9-uy. Tel.: +99855 508-02-89).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «14» avgust kuni tarqatildi. (2025-yil «13» avgustdagi №71 raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Asqarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

Sh.S. Reyimbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, arx.f.d., dotsent

M.S. Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, arx.f.d.,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tarixiy shaharlardagi arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilish, ularning estetik muhitini saqlab qolish va zamonaviy shahar rivojlanishiga mos ravishda uyg‘unlashtirish dolzarb muammolardan biriga aylangan. Shaharlarning jadal kengayishi va zamonaviy funksional ehtiyojlar asosida shakllanayotgan shaharsozlik jarayonlari ko‘plab tarixiy hududlarga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ularning me’moriy yaxlitligini, madaniy qatlamlarini va vizual identifikatsiyasini buzmoqda. Ushbu sharoitda tarixiy shahar muhitiga xos landshaft va arxitektura unsurlarini saqlab qolish, ularni zamonaviy standartlarga muvofiq tarzda moslashtirish, vizual uyg‘unlikni ta’minlash hamda “shahar vizual shovqini”ni kamaytirishga qaratilgan normalashtiruvchi reglamentlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga chiqmoqda. Bu esa, tarixiy muhitni muhofaza qilish va zamonaviy urbanistik rivojlanish o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahon miqyosida tarixiy va zamonaviy shahar hududlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni muvofiqlashtirish, arxitektura yodgorliklari uchun muhofaza zonalarini belgilash, shuningdek, shahar infratuzilmasini zamonaviy talablarga mos tarzda shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlar madaniy merosni saqlash, tarixiy va yangi qurilishlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish hamda shahar estetik muhitini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi samarali yondashuvlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Xususan, yetakchi xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari - tarixiy shahar muhitini landshaft, ijtimoiy qatlam va zamonaviy infratuzilma bilan uzviy bog‘liqlikda boshqarish; zamonaviy arxitektura elementlarini tarixiy muhitga estetik va funksional jihatdan uyg‘unlashtirish; tarixiy binolarning yangi ijtimoiy-ehtiyojlarga moslashuvchanligini ta’minlash; shuningdek, shahar makonida vizual uyg‘unlik va identifikatsiyani shakllantirishda dizayn-kod konsepsiyalariga asoslanish kabi yondashuvlar dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda.

So‘nggi yillarda Respublikamizda tarixiy yodgorliklarni asrash, qurilish va arxitektura sohasini modernizatsiya qilish, shaharsozlikni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga olib chiqishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”ning 35-maqsadi doirasida belgilangan vazifalarga muvofiq, ikkinchi badda “turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish”, to‘rtinchi badda esa “2022 yilda “Abadiy shahar” tarixiy majmuasini o‘z ichiga olgan Samarqand turizm markazi va unga zarur infratuzilmani tashkil etish”¹ masalalari ko‘zda tutilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish doirasida tarixiy muhitning an’anaviy arxitektura va madaniy xususiyatlari asosida stilistik jihatdan uyg‘unlashtirilgan, turizm uchun qulay va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni.

xavfsiz shahar makonini yaratish, shuningdek, tarixiy hududlar uchun maxsus dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqish, shahar muhitini shakllantirishda kompleks yondashuvlarni joriy etish tashqi ko‘rinishi, estetik yaxlitligi va funksional samaradorligi bilan ajralib turadigan zamonaviy shahar modelini yaratishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi 269-II-son “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 - 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi 104-son “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan O‘zbekiston shaharlari tarixiy hududlarini o‘ziga jalb etuvchi estetik ko‘rinishga ega bo‘lgan arxitektura muhiti dizaynini yaratish, kichik me‘moriy qurilmalar tizimini har bir hududning an‘anaviy arxitektura, madaniyati va madaniy meros elementlar asosida ishlab chiqishga oid vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi². Buxoro va Samarqand shaharlari tarixiy hududlarining tashkil topishi, arxitektura yodgorliklari va ulardagi me‘moriy

² Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX – начало XX веков). – Т.: 1988.; Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. Москва – 1951.; Булатов М.С. Геометрическая организация в арх. Средней Азии IX-XV в. Москва – 1988.; Пугаченкова Г.А. Архитектурные сокровища Бухары. Ташкент 1997.; Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. Москва 1948.; Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. Ташкент 1961.; Шимко В.Т. Архитектурно-дизайнерское проектирование городской среды. 2006.; Денике Б.П. Архитектурный орнамент Средней Азии. Москва, Ленинград-1939.; Кадырова Т.Ф., Бабиевский К.В., Гурсунов Ф.Ю. Архитектура Советского Узбекистана. М., Стройиздат, 1972, 134 с.; Аскарлов Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. -Т.: 2014.; Юсупова М.А. Бухарская школа зодчества XV - XVII вв. Особенности и динамика развития. Ташкент 2000.; Mamatmusayev T.Sh. O‘zbekiston tarixiy shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi. Avtoreferat. Toshkent 2019.; Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековой город Средней Азии. -Л.: 1973.; Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Т.: 2015.; Азимов И.М. Архитектура Узбекистана XVIII-нач. XX вв. Традиции и локальные особенности. Ташкент 1999.; Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. -Т.: 2002.; Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии. -М.: 1950.; Тонди А. Архитектурный декор Средней Азии эпохи Тимуридов. Москва – 2003.; Kevin Linch. The image of the city. Copyright © 1960 by the Massachusetts Institute of Technology and the President and Fellows of Harvard College. Twentieth Printime. 1990.; Гутнов А.Э. Эволюция градостроительства. Москва Стройиздат. 1984.; Волкова Н.Ю. Формирование цвето-композиционных решений фасадов жилых домов и комплексов. Москва 2009 г.; Орлова Л.Н. Основы формирования световой среды городской застройки. Автореферат. Москва – 2006.; Семенов М.Р. Разработка метода дизайн-проектирования бренда городских территорий с учетом национально-культурных факторов. Москва – 2016.; Михайлов С.М. Дизайн современного города комплексная организация предметно-пространственной среды теоретико-методологическая концепция. Автореферат. Москва – 2011.; Ahmedov M.Q. Shahar estetikasi. Toshkent 2016.; Салимов О. Ўзбекистон архитектура ёдгорликларини сақлаш ва улардан фойдаланиш. Монография. Тошкент – 2020.; Adilov Z.H. O‘zbekiston shaharlari landshaft muhiti dizaynini kompleks tashkil etish tamoyillarini takomillashtirish. Arxitektura

elementlar shakllanishining turli jihatlariga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar natijalari ilmiy ishlarda aks etirilgan. Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistonning shaharsozlik tarixi, madaniyati va arxitekturasiga oid masalalarga bog‘ishlangan ilmiy izlanishlar bu boradagi bilimlar manbaini boyitib kelmoqda. Jumladan, V.A. Nilsen, V.L. Voronina, M.S. Bulatov, G.A. Pugachenkova, B.N. Zasiptin, L.I. Rempel, E.V. Ratveladze, V.T. Shimko, V.M. Masson, V.V. Bartold, B.P. Denike, D.A. Nozilov, T.F. Qodirova, Sh.D. Asqarov, A.S. Uralov, K.D. Rahimov, M.A. Yusupova, A.A. Ziyayev, T.Sh. Mamatmusayev, O.G. Bolshakov, A.A. Asqarov, X.Sh. Po‘latov, I.M. Azimov, M.X. Isamiddinov, V.A. Lavrov, A. Tondi va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur yo‘nalishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Shaharlarning estetik qiyofasini, arxitektura muhitini shakllantirish, me‘moriy obyektlardan foydalanish va zamonaviy shaharsozlik bilan bog‘liq muammolar yuzasidan K. Linch, A.E. Gutnov, N.Yu. Volkova, L.N. Orlova, M.R. Semenov, S.M. Mixaylov, M.Q. Ahmedov, O.M. Salimov, Z.H. Adilov, Sh.S. Reyimbayev, Z.E. Matniyazov kabi olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mazkur tadqiqotlar, asosan, tarixiylik, etnografik va arxeologik nuqtai nazardan amalga oshirilgan bo‘lib, shaharlarning me‘moriy va stilistik shakllanishi, qurilish uslublari va ularning rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Biroq bugungi kunda tarixiy markazlarda zamonaviy talablar asosida shahar muhitini tashkil etish, turistik hududlarni shakllantirish, shuningdek, tarixiy hududlarni saqlab qolish va ularni tartibga solishning me‘moriy asoslarini ishlab chiqish masalalari ilmiy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarda tarixiy shahar hududlarini zamonaviy shaharsozlik elementlari bilan uyg‘unlashtirish, ularni bugungi kun ehtiyojlariga mos holda samarali foydalanish masalalarining yetarli darajada tahlil qilinmaganligi ushbu yo‘nalishni chuqurroq va kompleks tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-5321091567 raqamli “O‘zbekiston tarixiy shaharlarining an‘anaviy arxitektura va madaniyatini hamda tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy “dizayn-kod”larni ishlab chiqish” (2022-2023 yy.) amaliy loyiha mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi shaharning an‘anaviy arxitekturasi, madaniyati va tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, tarixiy hududlar uchun “dizayn-kod” qoidalarini shakllantirishning asosiy xususiyatlari va tamoyillarini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarixiy hudud “Dizayn-kod” qoidalarining ta‘sir chegaralarini belgilash, shuningdek, ko‘cha va hududlarni toifalash usullarini aniqlash;

bo‘yicha fan doktori dissertatsiyasi. Toshkent 2023.; Reyimbayev Sh.S. Arxitektura-tarixiy muhitni qayta tiklashning innovatsion metodologiyasi (Samarqand shahri misolida). Arxitektura bo‘yicha fan doktori dissertatsiyasi. Toshkent 2025.; Matniyazov Z.E. Orolbo‘yi mintaqasi turistik marshrut obyektlari arxitektura muhitini tashkil etish tamoyillari. Arxitektura bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Toshkent 2021.

shaharning tarixiy me'moriy yodgorliklari va madaniyati bilan uyg'unlashgan "dizayn-kod" elementlarini shakllantirish hamda tarixiy hududlar "dizayn-kod"ning uslubiy yechimlarini ishlab chiqish;

shahar tarixiy muhitining barqarorligini ta'minlash hamda tarixiy rekreatsion joylar infratuzilmasining sifatini oshirish maqsadida tarixiy "dizayn-kod" elementlarining muvofiq turlarini ishlab chiqish;

shaharning individual dizayni va imidjini yaratish hamda aholi qulay muhit tashkil etishga qaratilgan "dizayn-kod" qoidalarining ustuvor tamoyillarini shakllantirish;

me'moriy obyektlarning fazoviy, kompozitsion va vizual xususiyatlari asosida "dizayn-kod" ta'sir doirasini belgilovchi asosiy omillarni aniqlash;

Buxoro va Samarqandning tarixiy hududlari uchun an'anaviy arxitektura, iqlim sharoitlari va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda, shahar elementlarining rejaviy yechimlariga oid "Dizayn-kod" tavsiyanomalari hamda kichik me'moriy shakllar va fasad elementlarining 2D va 3D modellarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: Samarqand va Buxoro shaharlarining tarixiy hududlari hamda jamoat fazolarini qamrab oladi.

Tadqiqotning predmeti: Tarixiy hududlarning an'anaviy arxitektura elementlari asosida "dizayn-kod" qoidalarini ishlab chiqish tamoyillaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qiyosiy, statistik, internet materiallari va me'moriy loyihalarni tahlil qilish, joyida kuzatuv va dala tadqiqoti usuli, ilmiy ma'lumotlarni tizimlash, qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tarixiy hududlarning me'moriy-muhit xususiyatlarini, fazoviy tuzilmasini, madaniy identifikatsiyasini hisobga olgan holda dizayn-kod elementlarining ikki turi, ya'ni, tarixiy muhit uslubini takrorlaydigan, an'anaviy me'morchilikning o'ziga xos jihatlarini yanada kuchaytiradigan "boyituvchi" turi va tarixiy muhitga stilistik jihatdan moslashtirilgan, tarixiy obyektlarning vizual ustuvorligini buzmasdan umumiy muvozanatni saqlaydigan "ko'rinmas" turi asoslangan;

Me'moriy obyektlarning joylashuvi, ko'rish nuqtalari, hududiy chegaralari, hajmiy-rejaviy va kompozitsiyaviy yechimlari bo'yicha, ko'cha toifalari o'rtasidagi dizayn-kod qoidalarining ta'sir doirasini belgilovchi, ularning vizual va funksional chegaralarini aniqlovchi "dizayn-kod chizig'i" tushunchasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

Me'moriy yodgorliklarning qadimiyligi, tarixiy hudud va chegaralari, o'ziga xosligi, noyob badiiy yechimlari, ranglar uyg'unligi, bezak va ornamentlari asosida, tarixiy muhitni muhofaza qilish, shaharning vizual imidjini shakllantirish, funksional va estetik jozibadorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan dizayn-kodning beshta ustuvor tamoyili - "tarixiylik", "an'anaviylik", "individuallik", "qulaylik" va "moslashuvchanlik" ishlab chiqilgan;

Buxoro va Samarqandning tarixiy hududlari uchun ularning an'anaviy arxitekturasi, tabiiy-iqlim sharoitlari va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda, dizayn-kod elementlarining funksional va rejaviy yechimlarini belgilovchi "Dizayn-kod" tavsiyanomalari ishlab chiqilgan, shuningdek, ushbu hududlarga mos

kichik me'moriy shakllar va fasad elementlarining virtual modellar katalogi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarixiy hududlar uchun “dizayn-kod” qoidalarini ishlab chiqishning tarixiy va nazariy shartlari bo'yicha ilmiy bilimlar kengaytirilgan;

tarixiy hududlar “dizayn-kod”ining chegaralarini aniqlash va kategoriyalarini belgilash usullari taklif etilgan;

tarixiy hududlar “Dizayn-kod” qoidalari asosida ko'chalar toifalarining o'zaro ta'sir doirasini aniqlash maqsadida “dizayn-kod chizig'i” tushunchasi dalillangan va chegaralarni ajratish vositasi sifatida taklif etilgan;

hududiy me'morchilik an'alariga asoslangan holda shaharsozlik tizimidagi dizayn-kod obyektlarining parametrik va miqdoriy xususiyatlari, ularni mavjud muhitga uyg'unlashtirish usullari ishlab chiqilgan;

tarixiy hudud “dizayn-kod” qoidalarini ishlab chiqish bosqichlari shakllantirilgan va ularning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan;

tarixiy hudud “dizayn-kod” qoidalarini ishlab chiqishning asosiy (birlamchi) tamomoyillari shakllantirilgan;

Samarqand va Buxoro shaharlarining tarixiy hududlari uchun “Ko'cha jihozlari” hamda “Fasad elementlari” dizayn-kod tavsiyanomasi to'plamlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar va nazariy qarashlarning eksperimental loyihalash orqali amaliyotga tatbiq etilgani, ushbu loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilgani, shuningdek, olingan natijalar va xulosalarning sohaga aloqador respublika miqyosidagi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani hamda loyihalash tashkilotlari amaliyotiga joriy etilgani to'g'risidagi dalolatnomalar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arxitektura, turizm sohasidagi nazariy bilimlarni kengaytirish va boyitish, aholi yashash sharoitini yaxshilashga xizmat qilishi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida “Arxitektura muhiti dizayni”, “Shaharsozlik”, “Landshaft dizayni” va “Mebel dizayni” kabi fanlarni o'qitishda hamda turizm va me'moriy loyiha tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa turistik marshrutlar va sayyohlik markazlarining arxitektura muhiti obyektlari uchun dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqish, ularga milliylik ruhini singdirish, shuningdek, arxitektura, shaharsozlik va landshaft dizayni yo'nalishlari bo'yicha o'quv jarayonida tatbiq etish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi “O'zbekiston shaharlarining tarixiy hududlari ‘dizayn-kod’ qoidalarini shakllantirish tamoyillari (Buxoro va Samarqand shaharlari misolida)” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

shaharlarning tarixiy markazlarida joylashgan me'moriy obidalar, moddiy va madaniy meros obyektlari, bino va inshootlarning tarixiylik belgilari hamda dominantlik omillari, milliy an'alar va qadriyatlar asosida rivojlanayotgan turizm, xizmat ko'rsatish va tijorat obyektlarining jozibadorligini taminlash, shuningdek, tarixiy rekreatsion joylar infratuzilmasining sifatini oshirish, hudud individualligini

ta'kidlash maqsadida "dizayn-kod" elementlarining "boyituvchi" va "ko'rinmas" turlari konseptual jihatdan asoslab taklif etilgan, ushbu yondashuv asosida yaratilgan kichik me'moriy shakllarning virtual modellari oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi qoshidagi texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan "DIZAYN KOD. Shahar kichik me'moriy shakllari" nomli texnikaviy shart loyihasini ishlab chiqishda amaliy asos sifatida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 17-oktabrdagi 354-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2D va 3D formatdagi dizayn-kod elementlarining virtual modellarini ishlab chiqish orqali tarixiy hududlarda qo'llanilishi tavsiya etilgan kichik me'moriy shakllarning namunaviy bazasi kengaytirilgan, tarixiy hududlar uchun bajariladigan loyihalarning standartlashtirilishiga, ularni nazorat qilish va boshqarish mexanizmlarining soddalashtirilishiga xizmat qilgan;

tarixiy hududda dizayn-kod bo'yicha bino fasadlarining rang yechimlarini aniqlash usullari va ko'chalar toifasi o'rtasidagi chegaralarni "dizayn-kod chizig'i" orqali belgilash takliflari O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi qoshidagi texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan "DIZAYN KOD. Fasadlar. Texnik shartlar" nomli texnikaviy shartni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 17-oktabrdagi 353-son ma'lumotnomasi). Natijada, me'moriy hududlarda, jumladan shaharning tarixiy qismlarida joylashgan bino va inshootlar fasadlarining ishchi loyihalarini tuzishni hamda ularni tartibga solish qoidalarini shakllantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

me'moriy yodgorliklarning tarixiy chegaralari, ko'rish nuqtalari, mavsumiy koloritlari, vizual jozibadorlik xususiyatlari, bezak va ornamentlariga asoslangan holda "dizayn-kod" qoidalarini shakllantirishga doir, ustuvor tamoyillar - "tarixiylik", "an'anaviylik", "individuallik", "qulaylik" va "moslashuvchanlik" asosida ishlab chiqilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tayyorlangan "DIZAYN KOD. Umumiy talablar" nomli texnikaviy shart loyihasini ishlab chiqishda amaliy asos sifatida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 17-oktabrdagi 352-son ma'lumotnomasi). Natijada, "dizayn-kod" talablarini shakllantirish, tarixiy hududlarni me'moriy jihatdan kompleks tarzda qayta tashkil etish, ularni muhofaza qilish va himoya hududlarini belgilash, shuningdek, ushbu jarayonlarni tartibga solish bo'yicha amaliy samaradorlikka erishilgan;

tarixiy hududlarning me'moriy va madaniy an'analariga hamda zamonaviy shaharsozlik talablariga muvofiq holda, dizayn-kod elementlarining funksional va rejaviy yechimlarini belgilovchi, yangi dizayn konsepsiyasiga ega ko'cha elementlarining virtual modellar to'plami ishlab chiqilgan. Ushbu innovatsion dizayn-kod ishlanmalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan sanoat namunasi sifatida ro'yxatga olinib, 2023-yil 27-fevralda № SAP 02459, № SAP 02460, № SAP 02463, № SAP 02464, № SAP 02467, № SAP 02468 raqamli

patentlar bilan huquqiy jihatdan muhofaza qilingan. Natijada, dizayn-kod elementlarini standartlashtirilgan shaklda tizimli joriy etish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, bu shahar muhitining vizual yaxlitligini ta‘minlash, estetika va funkcionallikni muvozanatlashtirish, hududning arxitektura brendini shakllantirish hamda hududlararo identifikatsiyani kuchaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 6 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan. Shuningdek, ilmiy ish Turkiyaning Konya texnika universiteti huzuridagi arxitektura yo‘nalishiga ixtisoslashgan ilmiy kengashda ham ko‘rib chiqilib, muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining natijalari 41 ta ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan 1 ta monografiya, 8 ta sanoat namunasi patenti, 10 ta mualliflik huquqi guvohnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, 9 ta yuqori “Impact Factor”ga ega jurnallarda maqola, 8 ta ilmiy tezislarda konferensiya materiallarida (ulardan 6 tasi xalqaro, 2 tasi respublika konferensiyalarida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi “**Shahar dizayn-kodining tarixi va rivojlanish bosqichlari**” deb nomlanib, shahar dizayn-kod qoidalarining tarixi va rivojlanish tendensiyalari, maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari, “dizayn-kod” qoidalarni shakllantirish zaruriyati va qo‘llanish doirasi yoritilib berilgan va bugungi kunda shaharlarimizning tarixiy hududlardagi dizayn-kodga oid bo‘lgan asosiy muammolar ko‘rib chiqilgan.

Dizayn-kodlar dastlab xavfsizlikka oid me‘yorlarni belgilash vositasi sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, hozirgi kunda ular shahar arxitekturasi va muhitining vizual yaxlitligini ta‘minlashda muhim vositaga aylangan. Bunday kodekslarning dastlabki ko‘rinishlari XVII asrdagi London yong‘inidan keyingi qonunlarda, XVIII-XIX asrlardagi Yevropa va Usmonli imperiyasi shaharsozlik reglamentlarida, XX asr boshlarida AQShda (Evklid Heights, Klivlend) kuzatiladi. Fransiyadagi Osman rekonstruksiya islohotlari, Italiya (Siena), Rossiya (Sankt-Peterburg) va Turkiya (Istanbul, Beyrut) shaharsozlik me‘yorlari tarixiy hududlar dizayniga tizimli

yondashuv asoslarini yaratgan. Ayniqsa, Pyotr I davridagi klassitsizm, Napoleon III davridagi Parij rekonstruksiyasi dizayn-kodning ilg'or namunalariga asos bo'lgan.

Dizayn-kod qoidalari O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi 269-II-sonli "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning "Tarixiy manzilgohda shaharsozlik, xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatni tartibga solishning o'ziga xos jihatlari" nomli 33-moddasida belgilangan tarixiy mazilgohning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatuvchi barcha shaharsozlik elementlari va inshootlarini asoslagan holda binolar hamda inshootlarning o'lchamlari va nisbatlariga, avtomobil turadigan joylarni, reklamalar va lavhalarni joylashtirishni taqiqlash, cheklash hamda madaniy meros obyektlarini saqlash uchun zarur bo'lgan boshqa cheklashlarga taaluqli shaharsozlik reglamentini o'z ichiga olgan alohida tartiblar tizimi sifatida hizmat qiladi.

Shahar tarixiy hududini asrab qolish va shakllantirish, aholi uchun qulay muhit yaratish va boshqa ko'plab masalalar bilan bog'liq bo'lgan dizayn-kod tushunchalari hamda tariflari umumiy qabul qilingan mualliflik talqinlariga asoslangan. Dizayn-kodlar to'g'risida chet el tajribasi o'rganilganda mazmunan bir biriga o'xshash ammo turlicha vazifani bajaruvchi tushunchalar aniqlandi.

Kodlar: tartibga soluvchi organ tomonidan qabul qilingandan keyin amal qilinishi kerak bo'lgan qoidalar. Kodlar qurilish va dizayndagi majburiy talablardir hamda u shahar, tuman, okrug, shtat yoki boshqa yurisdiksiya tomonidan qabul qilinadi. Bunday kodlar qonun kuchiga ega, u tartibga solinadi va amalga oshiriladi. U ixtiyoriy mezon hisoblanmaydi va "kodga muvofiq" bo'lmaganlar jarimaga tortilishi mumkin.

Standartlar: standart (ing. standard - me'yor, namuna, o'lcham) - keng ma'noda - boshqa obyektlarni taqqoslash uchun dastlabki obyekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model; standartlanadigan obyektga qo'yiladigan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan me'yorlar, qoidalar, talablarni belgilovchi me'yoriy-texnik hujjat.

Ko'rsatmalar: odatda ma'lum bir soha (ishlab chiqarish, qurilish, sog'liqni saqlash va hokazolar) mutaxassislari uchun belgilangan mavzu bo'yicha ishlab chiqilgan yo'riqnoma.

Dizayn-kod tushunchasiga tadqiqotchilar tomonidan ko'plab tariflar berilgan. Ushbu tushuncha va tariflarga asoslanib shaharning tarixiy hududlari uchun dizayn-kodiga tarif berildi, maqsad va vazifalari belgilandi:

Tarixiy hududlar dizayn-kodi - tarixiy hududning an'anaviy shaharsozligi, arxitekturasi va badiiy muhitini shakllantirish bo'yicha individual yechimlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan, madaniy meros obyektlarini saqlab qolish va himoyalashga qaratilgan, binolar va inshootlarning tashqi yuzalarini, tarixiy markaz landshaftini, obodonlashtirish elementlarini, navigatsiya hamda axborot tuzilmalarini tartibga solishni o'z ichiga olgan mintaqaviy (mahalliy) normativ hujjat.

Shahar tarixiy hududlari dizayn-kodining maqsadlari:

- shaharning tarixiy arxitektura va madaniy meros qiyofasini saqlab qolish, o'zaro bog'langan, stilistik jihatdan birlashtirilgan, qulay va xavfsiz muhitni

shakllantirish jarayonlarini tartibga solish, shuningdek, shaharlari tarixiy markazlarining me'moriy va badiiy qiyofasini yanada rivojlantirish;

- tarixiy markaz hududida joylashgan axborot, navigatsiya, reklama inshootlari, stasionar bo'lmagan savdo tuzilmalari, kapital bo'lmagan obyektlar, kichik me'moriy shakllarining chegaraviy parametrlari, talablari, joylashtirish hududlari, o'rnatish va ulardan foydalanish qoidalarini belgilash:

- me'moriy va badiiy ko'rinishning estetik yaxlitligini saqlash, qulay vizual va axborot shahar muhitini shakllantirish:

- zamonaviy qurilish, restavratsiya va rekonstruksiya jarayonlarini tartibga solish orqali tarixiy hududlarning rivojlanishini me'yoriy asosda boshqarish;

- mahalliy aholi va tashrif buyuruvchilarda tarixiy joylarga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirish, turizm salohiyatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shish, tarixiy hududni jozibador, tartibli va investitsiyaviy jihatdan istiqbolli makon sifatida rivojlantirish.

Shahar tarixiy hududlari dizayn-kodining vazifalari:

- shahar tarixiy hududlari dizayn-kodining ta'sir doirasini aniqlash, tartibga solinadigan hududlar chegaralarini belgilash;

- tarixiy hududlarda ko'chalar, maydonlar va jamoat zonalarini vizual, funksional va madaniy qiymatiga ko'ra toifalarga ajratish;

- shaharning tarixiy arxitektura qiyofasiga mos, stilistik jihatdan uyg'un dizayn-kod elementlarini loyihalash;


- dizayn-kod elementlari uchun yagona me'yoriy talablarni ishlab chiqish, ularni restavratsiya, rekonstruksiya va yangi qurilish jarayonlarida bir xilda qo'llashni ta'minlash;

- estetik muvofiqlikni nazorat qilish tizimini ishlab chiqish orqali yangi yoki yangilangan obyektlarning dizayn-kodga muvofiqligini loyihalashdan oldin va so'ng baholash mexanizmlarini shakllantirish;


- vizual uyg'unlik va estetik muvozanatni ta'minlash uchun ko'cha ko'rinishlari, fasadlar va muhit elementlari bo'yicha me'yorlashtirilgan yondashuvni ishlab chiqish;

- zamonaviy arxitektura elementlarini tarixiy muhitga moslashtirish orqali tarixiy dizayn-kod elementlari uchun uslubiy mezonlar ishlab chiqish.

Tadqiqot kuzatuvlari natijasida Buxoro va Samarqand shaharlarining tarixiy markazlarida, tarixiy obyektlar chegaralari belgilanmaganligi sababli tarixiy obidalar va ular bilan tutashgan hududlarda reklama obyektlari, ko'rsatkichlarning noto'g'ri joylashtirilganligi, nostatsionar savdo obyektlarining tartibga solinmaganligi natijasida muhitning buzilishi, tarixiy obyektlarga noto'g'ri o'rnatilgan yoritish jihozlari va yozuvli taxtachalari ularga juda katta ziyon yetkazayotgani aniqlandi (1, 2-rasmlar).



1-rasm. O'zbekiston shaharlari tarixiy hududlaridagi dizayn-kod bo'yicha muammoli holatlar tahlili³.



2-rasm. O'zbekiston shaharlari tarixiy hududlaridagi dizayn-kod bo'yicha muammoli holatlar tahlili⁴.

Bino va muhitdagi turli reklama elementlari, turli shaharsozlik va obododlashtirish elementlarining tartibga solinmaganligi natijasida “vizual shovqin” kelib chiqishi aniqlandi.

Vizual shovqin - bu atrof-muhitdagi vizual ma'lumotlarning ortiqcha yoki tartibsizligini bildiruvchi tushuncha. U juda ko'p elementlar, yorqin ranglar, taqsimlanmagan narsalar yoki mos kelmaydigan kompozitsiyalar bilan ifodalanadi.

Tarixiy hududlar “dizayn-kod” qoidalarini ishlab chiqish zaruratini belgilovchi 3 ta asosiy omil: tarixiylik, ta'sir o'tkazish, individuallikning buzilishi omillari aniqlandi.

³ Manba: S.S. Matnazarov., L.X. Isoqov. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari tomonidan aniqlangan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi qonunbuzarliklar va prokuror nazorat hujjatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2 | Issue 5/2 | Issn 2181-1784.

⁴ 108ta madaniy meros obektida 146ta noqonuniy qurilma aniqlandi. <https://kun.uz/uz/news/2022/05/13/108ta-madaniy-meros-obektida-146ta-noqonuniyqurilma-aniqlandi> (murojaat qilingan sana:28.05.2022)

Tarixiy hududlar “dizayn-kod”ining qo‘llanilish doirasi shahar infratuzilmasining asosiy bo‘g‘inlari bo‘lgan ko‘chalar, jamoat joylari va maydonlari fazolarini qamrab olishi aniqlandi.

Samarqand va Buxoro shaharlarining “dizayn-kod” talablari doirasidagi asosiy muammolari aniqlandi va tarixiy hududlarning hozirgi kundagi tartibga solinganlik darajasi hududiy dizayn-kod maqsadlariga muvofiqlik darajasi boshlang‘ich bosqichida ekanligi qayd etildi.

Dissertatsiyaning II bobi “**Shahar tarixiy hududlari dizayn-kodining asosiy xususiyatlari**” deb nomlanib, tarixiy hudud turlari, ularni aniqlash, chegaralari va kategoriyalarini belgilash tamoyillari, tarixiy hududlar dizayn-kodining asosiy uslublarini belgilash va takomillashtirish usullari, tarixiy hududlardagi zamonaviy binolarning, landshaft elementlari va kichik me‘moriy shakllarning dizayn-kod yechimlari haqida so‘z boradi.


Dizayn-kod qoidalarining ta‘sir doirasi chegaralarini belgilashda ilmiy asoslangan tarixiy faktlarga tayanildi, tarixiy hudud turlarini tahlil etish asosida ikkita guruhi “*tarixiy markazga jamlangan*” va “*tarixiy markazdan uzilgan*” shakllari aniqlandi.

Tarixiy hududlarni aniqlash, chegaralari va kategoriyalarini belgilash usullari, shaharning me‘moriy va rejalashtirish tuzilmasiga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rganildi. Olib borilgan tahlil natijalariga asosan tarixiy obyektlarning hududiy joylashuv alomatlariga ko‘ra quyidagicha shakllanish turlari mavjudligi dalillandi:

- yakka holda joylashgan tarixiy obyekt;
- guruh holda joylashgan tarixiy obyektlar;
- yonma-yon joylashgan tarixiy obyektlar;
- ansambl ko‘rinishidagi tarixiy obyektlar;
- qarama-qarshi joylashgan tarixiy obyektlar;
- kompleks holda joylashgan tarixiy obyektlar.

Kartografiya kuzatuvlari natijasida tarixiy hududlarning shahar bo‘ylab egallagan o‘rni dizayn-kod chegaralarini belgilashda muhim bo‘lgan hududiy shakllanish turlarini aniqlab berdi. Tarixiy hududlarning joylashuv o‘rniga ko‘ra *monosentrik shakllanish* va *polisentrik shakllanish* turlari mavjudligi dalillandi.

Vizual ta‘sir hududlari davlat, mahalliy, mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan Madaniy meros obyektlarining himoya hududlarini aniqlashda xizmat qiladi. Unga ko‘ra ta‘sir chegaralarida joylashgan obyektlariga qo‘yilgan cheklovlar Madaniy meros obyektlarini haddan tashqari yorqin va vizual jihatdan ustun bo‘lgan obyektlardan saqlash imkonini beradi. Madaniy meros obyektining vizual ta‘sir hududlari uning muhofaza hududlariga qarab aniqlanadi (3-rasm).



3-rasm. Madaniy meros obyektining muhofaza va vizual ta'sir hududlarini aniqlash.

Dizayn-kod qoidalarga ko'ra ko'cha va maydonlar piyodalar va transport qatnovi intinsivligi, turistik marshrut yo'nalishlarida joylashganligi, kengligi, tarixiy va hizmat ko'rsatish obyektlarga egaligi, kuzatish nuqtalariga va ponaramali joylarning mavjudligi kabi omillar tayanib asosiy 5 ta toifaga ajratildi.

1-toifa - sayyohlik piyoda ko'chalari. Bunday ko'chalar faqat piyodalar qatnovi uchun mo'ljallangan ko'chalar bo'lib, transportda harakatlanishga ruxsat etilmaydi;


2-toifa - piyodalar qatnovi yuqori va mahalliy transport qatnoviga ruhsat etilgan tarixiy ko'chalar va hududlar: mahalliy ko'chalar, piyodalar ko'chalari va mahalliy maydonlar. 2-toifaga madaniy obyektlarning vizual ta'sir qilish hududlari, meros obyektlari va tarixiy binolarga ega ko'chalar ham kiradi. Bundan tashqari tarixiy shaharlarning eski shahar qismiga tegishli bo'lgan ichki ko'chalar ham ushbu toifaga kiritilgan;

3-toifa - piyodalar intinsivligi yuqori va transport intinsivligi o'rtacha bo'lgan hududlar: ko'chalar va asosiy maydonlarni bog'laydigan ko'chalar;

4-toifa - piyodalar va transport intinsivligi yuqori bo'lgan hududlar: magistral yo'llar va transport hududlari;

5-toifa - transport intinsivligi juda yuqori va intinsivlik darajasi yuqori bo'lgan piyodalar hududlari: tumanlararo va shaharlararo magistral yo'llari.

Tarixiy hududlarda "Dizayn-kod" qoidalarini ishlab chiqish asosida muhitning tartibga solinishida ko'chalar toifalarining o'zaro ta'sir doirasini aniqlashirish masadida "*dizayn-kod chizig'i*" tushunchasini kiritish va chegaralarning ajratish qismi sifatida belgilanishi taklif etildi (4-rasm).



4-rasm. Ko'cha toifalari chegaralarni belgilashda dizayn-kod chizig'i.

Tarixiy hudud "Dizayn-kod" uslubini aniqlashning umumlashtirish, dominantlik, mavzuli, guruhlash, aralash usullari taklif etildi.

- umumlashtirish usuli. Ko'rilayotgan hududning me'moriy va madaniy elementlaridan foydalangan holda muhit uchun yagona dizayn-kod uslubini belgilash;

- dominantlik usuli. Shahar tarixiy markazining dominant me'moriy obyektining dekorativ elementlari asosida muhit uchun umumiy bo'lgan dizayn-kod uslubini tanlash;

- mavzu usuli. Shahar yoki mintaqaning qadriyat, rivoyat, afsona hamda voqea kabi madaniy meroslari, hududning yoki ko'chaning nomi asosida dizayn-kodning mavzuli (tematik) uslubini yaratish;

- guruhlash usuli. Shaharning har bir tarixiy hududi uchun alohida bo'lgan va o'z qadriyati, me'morchilik uslubidan kelib chiqqan holda dizayn-kod uslubini aks ettirish;

- aralash usul. Ko'pincha shaharning turli funksional hududlari uchun birqancha usullardan foydalanilgan holda dizayn-kod uslubini belgilash.

Dissertatsiyaning III bobi "**Shahar tarixiy hududlarining dizayn-kod qoidalarini**" deb nomlanib, Shaharning tarixiy markazlarida dizayn-kod qoidalarini amaliyotga tatbiq etish masalalari, Buxoro va Samarqand shaharlari tarixiy hududlarining dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar keng ochib berilgan.

Tarixiy hududlarida dizayn kod elementlarining ikki xil yondashuvdagi turkumi taklif etiladi va ularni joriy etish ko'chalarni vizual tartibga solinishini hamda shahar markazida tarixiy hududlar ahamiyatini oshiradi. Tavsiya etilgan

dizayn-kod elementlarini o‘rnatish muhit uchun qulayliklar yaratadi va vizual jozibadorlikni kuchaytiradi. Bu elementlar tarixiy dizayn-kod obyektlarining “Ko‘rinmas” va “Boyituvchi” turlari deb atalib ularning tasnifi izohlandi.


Tarixiy dizayn-kod obyektlarining “ko‘rinmas” turi bo‘lib, o‘zining soddaligi, qulayligi, milliylikni aks ettirishi hamda muhitni tasavvur etishda tarixiy obyektlar ko‘rinishini buzmasligi bilan ajralib turadi. Asosan tarixiy obyektlar atrofida va uning chegara hududlarida foydalaniladi.

Tarixiy dizayn-kod obyektlarining “boyituvchi” turi bo‘lib, qulayligi, tarixiy hudud uslubini to‘liq takrorlashi va jozibasini namoyon ettirishi hamda muhitni tasavvur etishda tarixiylikni yanada oshirishi bilan belgilanadi. Asosan xizmat ko‘rsatish va tijorat obyektlarida hamda shaharning turistik-rekreatsion hududlarida foydalanish tavsiya etiladi.

Tarixiy hudud dizayn-kodining rang yechimlarini belgilash quyidagi usullar yordamida aniqlash taklif etilgan:

- hududdagi tarixiy binolar rang yechimi asosida aniqlash;
- hududdagi ma’lum bir uslub va tipdagi bino va inshootlarning rang yechimi asosida aniqlash;
- hududning dominant bino va inshootlarining rang yechimi asosida aniqlash;
- tarixiy hududga tabiat omillari ta’siridagi rang o‘zgarishlari asosida aniqlash.


Ushbu usullar yordamida aniqlangan natijalarning umumiy qiymatiga ko‘ra Buxoro va Samarqand tarixiy hududlar dizayn-kodining rang yechimlari aniqlandi (5-rasm).



5-rasm. Buxoro tarixiy obyektlari asosida aniqlangan ranglar umumiy natijasi.

Shaharning tarixiy markazlarida mahalliy hukumat organlari, arxitektura va shaharsozlik organlari, rejalashtirish va loyihalash komissiyalari, rejalashtirish va rayonlashtirish institutlari dizayn-kod qoidalarini muvofiqligini ta’minlashi va amaliyotga tatbiq etish mexanizmini tashkil etuvchi omillar sifatida qaraladi. Amalga oshirish mexanizmi sifatida tarixiy hududlar “dizayn-kod”ini tayyorlash bosqichlari shakllantirildi.

Tarixiy hududning umumiy tavsifidan kelib chiqqan holda dizayn-kod qoidalarining tarkibiy tuzilishi ishlab chiqildi (6-rasm).



6-rasm. Tarixiy hudud dizayn-kodining tarkibiy tuzilishi.

Shahar tarixiy hududlarining dizayn-kod qoidalarini shakllantirishning 5 ta ustuvor tamoyili ishlab chiqildi. Ushbu tamoyillar hududning kelajak ko'rishini qanday bo'lishini belgilab beruvchi dizayn-kod qoidalarini yaratishga xizmat qiladi.

Birinchi tamoyil - tarixiylik tamoyili. "Tarixiylik" tamoyiliga asoslangan Dk qoidalaridagi tarixiy binolarning o'ziga xosligi, me'moriy xususiyatlari va tarixiy kontekstini saqlash va muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tamoyil - an'anaviylik tamoyili. "An'anaviylik" tamoyiliga asoslangan DK qoidalari tarixiy muhitning an'ana va qadriyatlarini saqlashga hamda kelajak avlodga yetkazishga xizmat qiladi.


Uchinchi tamoyil - individuallik tamoyili. "Individuallik" tamoyiliga asoslangan DK qoidalari tarixiy muhitning o'ziga xosligi va boshqalardan farqli jihatlari, noyob xususiyatlari va ko'rinishlarini ochib berishga, hududning individual dizayni hamda shahar imidjini yaratishga xizmat qiladi.

To'rtinchi tamoyil - qulaylik tamoyili. "Qulaylik" tamoyiliga asoslangan DK qoidalari tarixiy hududda hamma uchun birday havfsiz va qulay bo'lgan muhitni rejalashtirishga xizmat qiladi.

Beshinchi tamoyil - moslashuvchanlik tamoyili. "Moslashuvchanlik" tamoyiliga asoslangan DK qoidalari rivojlanib borayotgan shahar tuzilmasining tarixiy hudud bilan uyg'unlashishiga, o'z navbatida zamonaviy shahar tuzilmasi elementlarining tarixiy hududga moslashishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston shaharlarining tarixiy hududlari dizayn-kodini shakllantirish umumiy tamoyillar asosida amalga oshirish tavsiya etiladi. Bu tamoyillar "Tarixiy hududlar dizayn-kodi" tamoyillari bo'lib, kelajakda respublikaning ko'plab

shaharlari tarixiy hududlari uchun “Milliy dizayn-kod modeli” sifatida xizmat qilishi mumkin (7-rasm).



7-rasm. Tarixiy hududlar dizayn-kod tamoyillari.

Tarixiy ko'chalarning asosiy toifalanish omillariga asosan Buxoro shaharining tarixiy hududlarida dizayn-kodi ta'siri doirasidagi ko'chalar 5 ta toifaga, Samarqand shaharining tarixiy hududlarida dizayn-kodi ta'siri doirasidagi ko'chalar 2 ta toifaga ajratildi va xaritalari ishlab chiqildi.

Samarqand shaharning tarixiy hududlarida ko'chalarning toifalanishi bo'yicha turli me'moriy uslubdagi "Dizayn-kod"ning ta'sir chegaralarida bo'shliqlar aniqlandi va ularni "tutashuv hududi" sifatida o'rganish zaruriyati aniqlandi. "tutashuv hudud"larning to'liq o'rganilmagan ko'plab sifatlari mavjud bo'lib, kelgusidagi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'rganilishi tavsiya etiladi.

Tutashuv hududi - bu ikki yoki undan ortiq dizayn-kodlar amal qiladigan tarixiy zonalar kesishmasida joylashgan va har ikkala hududning stilistik xususiyatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi fazoviy birlikdir.

Shaharning tarixiy hududlardagi bino va inshootlar fasadlariga qo'yiladigan asosiy "dizayn-kod" talablari ishlab chiqildi (8-rasm).

